
QADAMING QUTLUG' BO'LSIN, NAVRO'Z!

Bugun Toshloq tumani markaziy o'yingohida "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayli hamda konsert dasturi ko'tarinki ruhda va yuqori saviyada o'tkazildi.

Dastlab, bayram ishtirokchilari milliy hunarmandchilik buyumlari, bahoriy taomlar ko'rgazmasi, sportchi yoshlarning ko'rgazmali chiqishlari, milliy o'yinlar musobaqalarini tomosha qildilar.

Bayram tantanasida Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev so'zga chiqib, tuman aholisini yurtimizga qutlug' qadamlar bilan kirib kelgan bahor, yasharish va yangilanish ayyomi — Navro'zi olam bilan chin qalbdan samimiy muborakbod etdi.

Bayram tadbirida elimiz suygan xushovoz xonandalar ijrosidagi dilrabo taronalar, ko'ngilochar dasturlar, badiiy havaskorlik va folklor jamoalarining chiqishlari barchaga bayramona kayfiyat hamda ko'tarinkilik baxsh etdi.

Ayniqsa, xalqimiz suygan san'atkorlari Ilhom Ibroximov, Abdujalil Qo'qonov hamda Otabek Muhammadzoxidlarning dil tortar kuy va qo'shiqlari barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

Toshloq tumanida Navro'z bayramiga bag'ishlangan bunyodkorlik, yaratuvchanlik, xayr-saxovat tadbirlari davom etmoqda.

2024-03-18 16:29:07